

"TASDIQLANGAN"

"RO'YXATDAN O'TKAZILGAN"

"ANOR BANK"
aksiyadorlik jamiyati

O'zbekiston Respublikasi
Istiqbolli loyihalar
milliy agentligi

Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy
yig'ilishining
2025-yil 28-noyabrdagi
7/2025 - qarori bilan

Direktorning birinchi
O'rinbosari



Kuzatuv Kengashi raisi

Sh.N. Nosirov



V.Yu. Pak

2026 yil "22" anbar 6 0916-11 - son

"ANOR BANK" AKSIYADORLIK JAMIYATI
QO'SHIMCHA AKSIYALAR CHIQRILISHI TO'G'RISIDAGI
QARORI

Identifikatsiya raqami berildi:	R	U	1	1	1	P	O	9	1	6	R	O
---------------------------------	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz shakldagi 50 000 000 (ellik million) dona aksiyalar, har birining nominal qiymati 1000 (bir ming) so'm.
Aksiyalarning chiqarilayotgan umumiy summasi 50 000 000 000 (ellik milliard) so'm.
Aksiyalar yopiq obuna yo'li bilan joylashtiriladi.
Aksiyalarning ushbu chiqarilishi o'n birinchi chiqarilishdir.


"ANOR BANK" AJ Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2025-yil 28-noyabrdagi 7/2025- sonli qarori bilan aksiyalar chiqarilishi to'g'risida qaror qabul qilingan

(emitentning aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorni qabul qilgan o'rgani ko'rsatiladi)

"ANOR BANK" AJ Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2025-yil 28-noyabrdagi 7/2025- sonli qarori bilan aksiyalar chiqarilishi to'g'risida qaror tasdiqlangan

(emitentning aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorni qabul qilgan o'rgani ko'rsatiladi)

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va elektron pochta manzili:
100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Shaxrisabz ko'chasi, 85-uy. Telefon: (+99855) 503-00-00, elektron pochta manzili: info@anorbank.uz



Boshqaruv raisi:

ANORBANK

Bosh buxgalter:

Sh.S. Akramov

U. M. Babayev

Sana: 2025-yil _____

1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli): **oddiy hujjatsiz shakldagi 50 000 000 (ellik million) dona**

2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli: **xujjatsiz**

3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so'm): **1000 (bir ming) so'm.**

4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona): **50 000 000 (ellik million) dona.**

5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm): **50 000 000 000 (ellik milliard) so'm.**

6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar aksiyadorlarga quyidagi huquqlarni beradi:

- bankning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;
- depo xisobvarag'idan o'ziga ta'luqli ko'chirma olish;
- bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- bank tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol - mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;
- bankning moliya - xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish, konfidensial ma'lumotlar bundan mustasno;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qonunchilikda belgilangan talablardan kelib chiqqan xolda o'ziga tegishli bo'lgan aksiyalarini bir qismini (yoki to'liq) bank tomonidan qaytarib sotib olishni talab qilish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z xuquqlarini ximoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va ximoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda extimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;
- bank aksiyalari beradigan xuquqlarni (xuquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o'z vakiliga (vakillariga) berish;
- bank tomonidan joylashtirilayotgan qo'shimcha aksiyalarni imtiyozli sotib olish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlari va Bank ustaviga muvofiq boshqa xuquqlar.

7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to'g'risidagi qarordagi har qanday cheklashlar: **Ushbu chiqariluvdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan Bank ustavida cheklovlar mavjud emas.**

8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so'm): **800 000 000 000 (sakkiz yuz milliard) so'm.**

9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi): **600 000 000 (olti yuz million) dona oddiy egasining nomi yozilgan xujjatsiz va 200 000 000 (ikii yuz million) dona imtiyozli egasining nomi yozilgan xujjatsiz aksiyalar.**

10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi): **Bank tomonidan obligatsiyalar chiqarilmagan.**

11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi.

11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna):

Mazkur chiqarilishdagi aksiyalar yopiq obuna bo'yicha aksiyador - jismoniy shaxs OLIMOV KAXRAMONJON ANVAROVICHga xususiy joylashtirish yo'li bilan joylashtiriladi.

11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati:

11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati:

Ushbu chiqariluvdagi aksiyalarni joylashtirish muddati - **qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida aksiyalarning qo'shimcha chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay.**

Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – **imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugagan kundan keyingi kun.**

Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – **oxirgi aksiya joylashtirilgan sana, biroq qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida aksiyalar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran bir yildan kechiktirmay.**

11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi:

Aksiyalar joylashtirilishi birjadan tashqari uyushmagan bozorda amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik-huquqiy bitimlarni tuzish yo'li bilan, shunda ushbu aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilish kuniga, ya'ni 2025-yil 28-noyabr xolatiga, shakllangan reyestrda qayd etilgan aksiyadorlarga aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqini berish yo'li bilan.

Ushbu chiqarilishdagi bank aksiyalarni joylashtirishda bankka qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilarini (anderraterlarni) jalb qilish nazarda tutilmaydi.

Imtiyozli huquq qo'llanilganidan keyin qolgan aksiyalarning bir qismi aksiyador - jismoniy shaxs Olimov Qaxramonjon Anvarovichga joylashtiriladi.

11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:

“Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariyasi” Aksiyadorlik jamiyati to'g'risida ma'lumot:

To'liq nomi – **“Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyasi” Aksiyadorlik jamiyati;**

Tashkiliy-xuquqiy shakl: **Aksiyadorlik jamiyati;**

Joylashgan joyi va pochta manzili – **100170, Toshkent shaxri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shox ko'chasi, 107, telefon: (+99871) 209-02-42.**

Xuquqlarni xisobga olgan investitsiya vositachilari hakida ma'lumot:

To'liq nomi – **«UNIVERSAL DEPOZIT» mas'uliyati cheklangan jamiyati;**

Tashkiliy-xuquqiy shakl: **mas'uliyati cheklangan jamiyati;**

Joylashgan joyi va pochta manzili - **100060, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Olmachi ko'chasi 26-uy, telefon: (+99871) 268-28-08.**

11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

- 2025-yil 28-noyabr holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reyestrda qayd etilgan bankning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega;

- qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni sotib olishning imtiyozli huquqi aksiyadorlar tomonidan ularga tegishli bank aksiyalarining soniga, soniga va turiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi;

- imtiyozli huquqning amal qilish muddati ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqni amalga oshirish mumkinligi to'g'risida xabarnoma e'lon qilingan sanadan boshlab 10 kalendar kunni tashkil etadi. Xabarnoma joylashtiriladigan aksiyalarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalar sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning ushbu huquqini amalga oshirish muddati va tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak;

- imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni olish to'g'risida jamiyatga aksiyadorning nomi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), u oladigan aksiyalar soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va to'lov to'g'risidagi hujjatni yuborish yo'li bilan o'zining imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza imtiyozli huquqning amal qilish muddati mobaynida bankka yuborilishi kerak;

- imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar u tugagunga qadar jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish yoki undan foydalanishni rad etish to'g'risida yozma arizalar olingan bo'lsa, tugatiladi;

- imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi;

- imtiyozli huquq qo'llanilganidan keyin qolgan aksiyalarning bir qismi aksiyador Olimov Qahramonjon Anvarovichga sotiladi.

11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:
Ushbu chiqarilayotgan aksiyalarning joylashtirish narxi 1000 (bir ming) so'm, ya'ni nominal qiymatida, shuningdek imtiyozli huquq egalariga joylashtiriladi.

11.7. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar aksiyalar uchun to'lovni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosan investitsiya vositachisi tomonidan ro'yhatdan o'tkazgan aksiyador va bank o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

Aksiyalarni sotib olish pulsiz vositalar orqali ko'zda tutilmagan. Aksiyalar bo'yicha to'lovlar pul mablag'lari bilan naqd yoki naqdsiz shaklida amalga oshiriladi.

Bank rekvizitlari: x/r 2983 0000 3000 0118 3001 «ANOR BANK» AJ

MFO 01183

INN 207324986.

11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi:

Mazkur chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlar 60 foizdan kam miqdorda joylashtirilgan taqdirda chiqarilish amalga oshmagan deb hisoblanadi;

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb tan olingan taqdirda bank ushbu xolat to'g'risida ommaviy axborot vositalarida, aksiyadorlarga bildirishnoma yuborish, shuningdek korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz) va bank veb-saytida (www.anorbank.uz) rasmiy xabarnoma e'lon qiladi.

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb tan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida aksiya uchun to'lov sifatida olingan mablag'lar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qaytariladi.

12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:

Ushbu chiqariluv to'g'risidagi ma'lumot qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda elon qilinadi, shu jumladan korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz) va bank veb-saytida (www.anorbank.uz).

Bankning qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi Qarorning asli nusxasi va nusxasi bilan O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Yashnobod tumani, Shaxrisabz ko'chasi, 85-uy yoki bankning rasmiy veb-saytida (www.anorbank.uz) tanishish mumkin.

13. Boshqa ma'lumotlar - ko'zda tutilmagan.

Tikilgan va raqamlangan 3 varaqda

Boshqaruv raisi _____
"ANOR BANK" AKSIYADORLIK JAMIYATI Sh.S.

Bosh buxgalter _____
"ANOR BANK" AKSIYADORLIK JAMIYATI U.M.



Handwritten signature in blue ink, consisting of several overlapping loops and lines, crossing the stamp area.